

ZOMIN O‘RMON XO‘JALIGI HUDUDIDAGI IQLIMNING O‘ZIGA XOSJIHATLARI

Fayzullaev Manas Musurmonqul o‘g‘li

*Guliston davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar va san‘atshunoslik
kafedrası o‘qituvchisi*

E-mail: fayzullayevmanas@gmail.com

*Yuldasheva M.V. *, Yarlixabova S. S.*

*Guliston davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar va san‘atshunoslik
kafedrası 1-bosqich talabasi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12741687>

Annotasiya: Ushbu maqolada Zomin o‘rmon xo‘jaligi hududidagi iqlim o‘rganilgan va iqlimiga doir faktik materiallar keltirib o‘tilgan. Jizzax viloyati Zomin tumani hududida joylashgan Zomin o‘rmon xo‘jaligi hududidagi havo harorati, havoning nisbiy namligi va yillik yog‘ingarchilik miqdori, tuprog‘ining o‘rtacha ko‘p yillik harorati, shamolning asosiy yo‘nalishi haqidagi ma‘lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: iqlim, yog‘in miqdori, meteostansiya, o‘rmon xo‘jaligi, havo xarorati, issiq davr, qor qoplami, shamol, tuproq, nisbiy namlik.

ОСОБЕННОСТИ КЛИМАТА ЗОМИНСКОГО ЛЕСНИЧЕСТВА

Аннотация: В данной статье изучен климат Зоминского лесничества и представлены фактические материалы, связанные с его климатом. Проанализированы данные о температуре воздуха, относительной влажности и годовых осадках, средней многолетней температуре почвы, а также основном направлении ветра в Зоминском лесничестве Джизакской области.

Ключевые слова: климат, осадки, метеостанция, лесное хозяйство, температура воздуха, теплый период, снежный покров, ветер, почва, относительная влажность.

SPECIFIC ASPECTS OF CLIMATE IN ZOMIN FORESTRY AREA

Abstract: In this article, the climate in the Zomin forestry area is studied and factual materials about the climate are presented. Data on air temperature, relative humidity and annual precipitation, average long-term soil temperature, and main wind direction in the Zomin forestry area of Jizzakh region were analyzed.

Key words: climate, precipitation, weather station, forestry, air temperature, warm season, snow cover, wind, soil, relative humidity

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Bugun iqlim o‘zgarishi insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammo ekani jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan. Iqlim o‘zgarishi inson hayotining barcha sohalariga ta‘sir ko‘rsatmoqda va iqlim

o‘zgarishining salbiy oqibatlarini oldini olish hamda yangi hayot sharoitlariga moslashish bo‘yicha kechiktirilmaydigan choralar ko‘rishni talab etmoqda.

O‘zbekiston iqlim o‘zgarishi oqibatlari ta‘siriga ko‘proq moyil bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Ekspertlarning baholariga ko‘ra atmosferada issiqxona gazlari konsentratsiyasining bundan keyin ham ortishi, qurg‘oqchilik natijasida suv va oziq-ovqat tanqisligi xavfini ko‘payishiga, issiq mavsum davomiyligi va qizg‘inligining oshishi tufayli aholi sonining ortishiga, shuningdek sellar, toshqinlar va boshqa xavfli hodisalarning takrorlanishiga olib keladi. Undan tashqari, bunday ilish ekotizimlar holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, ekologik vaziyatning keskinlashuviga olib keladi.

Global iqlim o‘zgarishi va mamlakat tabiiy-resurs kompleksining ana shu o‘zgarishlarga ta‘sirchanligi izchil iqlimiy siyosatni shakllantirish zaruriyatini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-sonli qaroriga muvofiq, O‘zgidromet tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda tayorlangan “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «Yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” tasdiqlandi va ushbu strategiyani ilgari surish va joriy etish bo‘yicha idoralararo kengash tuzildi. Ushbu strategiyaning harakatlar rejasi (yo‘l xaritasi)ga muvofiq, har bir vazirlik va idoralarga iqlim o‘zgarishini yumshatish yoki unga moslashish bo‘yicha vazifalar yuklatilgan.

Maqsad va vazifalar: Jizzax viloyati Zomin tumani hududida joylashgan Zomin o‘rmon xo‘jaligi hududidagi iqlim ma‘lumotlarni tahlil qilish va o‘rganish ushbu ishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Zomin o‘rmon xo‘jaligi hududidagi havo harorati, havoning nisbiy namligi va yillik yog‘ingarchilik miqdori o‘rganish va tahlil qilish;
- Zomin o‘rmon xo‘jaligi hududidagi tuprog‘ining o‘rtacha ko‘p yillik harorati, shamolning asosiy yo‘nalishi o‘rganish va tahlil qilish;

Natijalar va ularning muhokamasi. Zomin o‘rmon xo‘jaligining hududi asosan tog‘li maydonlarga to‘g‘ri keladi. Shimoldan keluvchi sovuq xavo oqimlari hisobiga qishda harorat sovuq bo‘ladi. Yozda esa cho‘l tomondan keladigan issiq oqim evaziga issiq bo‘lishi kuzatilgan. Shuningdek kunlik havo harorati har kuni o‘zgarib turadi. Yog‘in miqdori yozda juda kam bo‘ladi. Yillik yog‘in miqdorining asosiy qismi qish va bahor oylariga to‘g‘ri keladi. Asosiy yog‘in qor shaklida yog‘adi. Ko‘p yillik havo harorati “Zomin” meteostansiyasi ma‘lumotlari asosida o‘rganildi.

Iqlim ma‘lumotlarini tahlil qilib, quyidagi omillar o‘simlik o‘sib rivojlanishiga salbiy ta‘sir etishi aniqlandi:

- yilning issiq davrida qurg‘oqchilik bo‘lishi;
- bahorda bo‘ladigan kechki sovuqlar;
- qishda havo xarorati juda past bo‘lishi;
- toshqin va sellar paytida tuproq unumdor qatlamining yuvilib ketishi.

Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, biron bir agrotexnik tadbirlarni qo‘llashda ilmiy tomondan puxta ishlab chiqish lozim.

1-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, eng sovuq oy fevral hisoblanib, eng issiq davr iyul-avgust oylariga to‘g‘ri keladi.

Xavoning mutloq past harorati fevralda -21°C , mutloq yuqori harorati esa iyulda $+44^{\circ}\text{C}$ bo‘ladi. Zomin o‘rmon xo‘jaligining iqlimini harakterlash uchun “Ko‘lsoy” meteostansiyasining o‘rtacha oylik va yillik ma‘lumotlari keltirildi. Bu ma‘lumotlarga qaraganda havoning o‘rtacha oylik harorati yanvar oyida $-5,9^{\circ}\text{C}$, iyul oyida $15,9^{\circ}\text{C}$ o‘rtacha yillik harorati $4,8^{\circ}\text{C}$ ga teng bo‘lgan. O‘rtacha -5°C haroratlar 16.II va 29.XII da bo‘lgan, -5°C dan yuqori bo‘lgan kunlarning soni 315 kunga teng, $+0^{\circ}\text{C}$ dan yuqorisi 243 kun, $+5^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo‘lgan kunlarning soni 181 kun 16.IV-15.X, $+10^{\circ}\text{C}$ dan ortiq bo‘lgan kunlar 123 (14.V-15.IX), $+15^{\circ}\text{C}$ dan yuqori haroratli kunlar 39 kuni tashkil etgan (30.VI-9.VIII).

Havoning o‘rtacha absalyut minimal harorati dekabrda -32°C , iyulda $+10^{\circ}\text{C}$ bo‘lgan. Soat 13 da havoning o‘rtacha harorati yanvar oyida $-1,4^{\circ}\text{C}$, iyulda $+21,6^{\circ}\text{C}$, o‘rtacha yillik ko‘rsatkichi esa $+9,9^{\circ}\text{C}$ ga teng havoning maksimal harorati yanvarda $+15^{\circ}\text{C}$, avgustda $+33^{\circ}\text{C}$ bo‘lgan. Bahorda oxirgi sovuq haroratli kun 5.X kuzgi birinchi sovuq haroratli kun 29.IX ga to‘g‘ri keladi, sovuqsiz kunlarning soni 144 kunga teng.

Yog‘ingarchilik – iqlimning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Uning ta‘sirida tuproqda namlik miqdori ta‘minlanadi. Zomin o‘rmon xo‘jaligida yillik yog‘ingarchilik miqdori 461 mm ni tashkil etadi. Yog‘ingarchilik yil fasllari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi (2-jadval). bahorda 177 mm (38,3%), yozda 28 mm (6,1%), kuzda 86 mm (18,7%) va qishda 170 mm (36,9%).

Qor qoplami loyihalashtirilayotgan maydonda har yili hosil bo‘ladi, lekin qisqa muddatda erib ketadi. Keltirilgan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki yillik qor qoplamini turishi 36 kun.

1-jadval

Oylar	Ko‘rsatkichlar		
	O‘rtacha harorat, $^{\circ}\text{C}$	Eng yuqori harorat, $^{\circ}\text{C}$	Eng past harorat, $^{\circ}\text{C}$
Yanvar	1	20	-18
Fevral	2	23	-21
Mart	8	27	-8
Aprel	16	34	-3
May	20	38	0
Iyun	28	40	8
Iyul	28	44	13
Avgust	25	41	8
Sentabr	20	36	5
Oktabr	14	35	4

Noyabr	8	30	-10
Dekabr	3	23	-16
Yillik	14,4	44	-21

*Zomin o‘rmon xo‘jaligi hududidagi havo harorati, °C
 (Zomin meteostansiyasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi)*


Eng ko‘p yog‘in bahor va qishda tushadi, shu jumladan asosiy yog‘inlar yanvar va mart oylariga to‘g‘ri keladi. Havoning nisbiy namligi may oyigacha maqbul darajada bo‘ladi. Havoning nisbiy namligi yanvar va fevral oylarida eng yuqori darajaga, eng kam miqdori esa iyun-iyul oylariga to‘g‘ri keladi. Bularning barchasi havo harorati va atmosferadan tushadigan yog‘in miqdoriga bog‘liq (1-grafik).

2-jadval

Oylar	Ko‘rsatkichlar	
	xavoning nisbiy namligi, %	yog‘ingarchilik miqdori, mm
Yanvar	78	68
Fevral	75	58
Mart	76	78
Aprel	64	66
May	54	33
Iyun	40	12
Iyul	38	6
Avgust	40	10
Sentabr	46	22
Oktabr	58	23
Noyabr	69	41
Dekabr	77	44
Yillik	59,6	461

*Havoning nisbiy namligi va yillik yog‘ingarchilik miqdori
 (Zomin meteostansiyasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi)*

Havoning nisbiy namligi soat 7 da yanvar oyida 79 %, 13 da -67 %, 2100 da 79 %, iyul oyida esa mos ravishda 41; 29; 39 % o‘rtacha yillik ko‘rsatkichlar esa quyidagicha bo‘lgan: soat 7 da 67 %, soat 13 da 47 %, soat 21 da 69 % ga teng bo‘lgan.



1-grafik. Zomin o‘rmon xo‘jaligining o‘rtacha yillik havo harorati (°C) va yog‘ingarchilik miqdori (mm) ning oylar bo‘yicha taqsimlanishi

Soat 13 da havoning nisbiy namligi 30 % bo‘lgan kunlar bir yilda 126 kuni tashkil etadi, yanvarda 0,4 iyulda 23,8 kuni tashkil etgan. 80 % ga teng bo‘lgan havoning nisbiy namlanishining bir yildagi miqdori 37,5 kunga teng. (o‘rtacha kun yilliklar bo‘yicha).

Zomin meteostansiyasi ma‘umotlariga qaraganda 0,4 m chuqurlikda tuproqning o‘rtacha yillik harorati 7,4 °C, 1,6 m chuqurlikda esa 8,1 °C bo‘ladi, yanvar oyida esa 0,4 m chuqurlikda -0,6 °C iyul oyida 15,4 °C ga teng, 1,6 m chuqurlikda esa yanvarda 4,7 °C, sentabrda 12,6 °C ga teng (3-jadval).

3-jadval

Oylar	Ko‘rsatkichlar		
	O‘rtacha harorat, °C	Eng yuqori harorat, °C	Eng past harorat, °C
Yanvar	-1	3	-3
Fevral	0	9	-5
Mart	5	15	0
Aprel	15	30	5
May	22	43	11
Iyun	28	55	19
Iyul	31	58	18
Avgust	30	53	17
Sentabr	22	42	11

Oktabr	11	31	4
Noyabr	6	16	-1
Dekabr	1	7	-3
Yillik	14,2	58	-3

*Zomin o‘rmon xo‘jaligi tuprog‘ining o‘rtacha ko‘p yillik harorati
 (Zomin meteostansiyasi ma‘lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi)*


Zomin meteostansiyasi ma‘lumotlariga qaraganda yil davomida shamol ko‘proq g‘arb tomondan esadi. Uning tezligi 2,3 m/sek. Yanvar va aprel oylarida shamolni tezligi 5,2 m/sek gacha etishi mumkin (4-jadval). Shamolni tezligi yuqori bo‘lgan kunlar soni 36 kungacha etadi (2-grafik). Bu shamollar bahorda ko‘chat ekish vaqtida tuproqni tez qurishiga olib keladi.

4-

jadval

Oylar	Shimolni qaytarishi %							
	Sh	ShShq	Shq	JShq	J	JG‘	G‘	ShG‘
Yanvar	11	4	3	2	2	14	50	14
Fevral	17	5	6	3	3	12	39	15
Mart	17	8	10	2	2	9	39	13
Aprel	15	9	10	3	1	10	38	14
May	23	9	8	2	2	10	39	15
Iyun	32	13	5	1	1	7	29	21
Iyul	33	15	2	0	1	3	20	21
Avgust	29	12	2	0	1	4	24	24
Sentabr	18	11	4	0	0	5	35	16
Oktabr	18	9	5	1	2	8	43	14
Noyabr	15	7	6	1	3	9	49	13
Dekabr	15	4	3	1	2	11	44	13
O‘rtacha yillik	20	9	5	1	2	9	38	16

*Zomin o‘rmon xo‘jaligi hududidagi shamolning asosiy yo‘nalishi
 (Zomin meteostansiyasi ma‘lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi)*



2-grafik. Shamolning takrorlanish yo‘nalishi

Xulosa. Mamlakat rahbariyati va hukumati tomonidan iqlim o‘zgarishi sohasidagi harakatlarni tartibga solish va chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq qator hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekistondagi iqlim faolligi kuzatib borish va tahlil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Mazkur maqolada Zomin o‘rmon xo‘jaligi hududidagi iqlim o‘rganildi va ma‘lumotlar tahlil qilindi. Zomin tumani iqlimining o‘ziga xosligi bilan Jizzax viloyatida qolaversa respublikamizda alohida ajralib turadi. Kelgusida GAT texnologiyalari asosida mazkur hududdagi iqlimni kuzatib borish, prognozi qilish va kartalarini yaratish iqlimshunoslik va geografiyada ko‘pdan-ko‘p tadqiqotlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori. <https://lex.uz/docs/4785256>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil, 28 yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. <http://lex.uz//docs/5841063>
3. Yu.V.Petrov, H.T.Egamberdiyev va boshqalar Iqlimshunoslik “NOSHIR” nashriyoti 2010-y.
4. Zomin meteostansiyasi ma‘lumotlari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi Zomin davlat qo‘riqxonasi ma‘lumotlari, 2021.